

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

# 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

1 SENTYABR – MUSTAQILLIK KUNI

# 31

YOSHDA



# SENTYABR

# №44



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
3-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-3**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 44-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 19 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

<b>1. Davletova Dilafruz Ulug‘bekovna</b> XIVA QO‘NG‘IROTLARI SULOLASINING SIYOSIY TARIXI.....	7
<b>2. Oltinoy Qodirova</b> “AVESTO”DA MA‘NAVIY TARBIYA.....	8
<b>3. Rakhmatullaeva Z.Z.</b> THE CULTURAL AND HISTORICAL SIGHTS OF TERMEZ: KOKILDOR-OTA AND THE MEMORIAL COMPLEX OF SULTAN SAODAT.....	10
<b>4. Utemuratova Xanna</b> O‘ZBEKISTONDA BOLALARNI MUZEYLARGA JALB QILISH MASALASI.....	13
<b>5. Xayrullayeva Zarina Ne‘matullo qizi</b> FORS KO‘RFAZI MINTAQASI O‘ZIGA XOS AHAMIYATGA EGA GEO-IQTISODIY, GEO- STRATEGIK VA GEOSIYOSIY VAZIYATLAR.....	16



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### XIVA QO'NG'IROTLARI SULOLASINING SIYOSIY TARIXI

**Davletova Dilafruz Ulug'bekovna**

Hazorasptumanidagi 19-maktab tarix fani  
o'qituvchisi tel:+998996822880

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX-asrda Xiva xonligi taxtini boshqargan Qo'ng'irotlar sulolasi vakillari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Inoqlar, Qo'ng'irotlar sulolasi, sohtaxon, harbiy islohot, Jalqonqal'a

1763 yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'irotlar urug'i inoqlari hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsa-da, 1804 yilgacha Xiva xonlari hukmdor sifatida boshqa shahsni xon qilib e'lon qilganlar. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmdorlaridan Muhammad Amin inoq (1763-1790yy.) Xivada hokimiyatni qo'lga olgach saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o'ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. Yangi xon shu yo'l bilan xonlikdagi muhim siyosiy-ma'muriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lga olib, ayrim mustaqil beklarni o'ziga itoat ettirdi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, shaharlik savdogarlar, hunarmandlar va din peshvolari yordamida o'z hokimiyatini ancha mustahkamlagan Muhammad Amin inoq 1770 yilda turkmanlar hujumini, 1782 yilda Buxoroliklar tajovuzini muvaffaqiyatli qaytardi. Uning hukumronligi davrida Xiva xonligida dehqonchilik, savdo – sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ma'lum chora – tadbirlar amalga oshirildi. Mahalliy hukmdorlarning o'zaro nizomlari va kurashlariga chek qo'yilishi natijasida xonlikdagi iqtisodiy hayot yaxshilanib bordi.

Muhammad Aminning o'g'li Avaz inoq (1790-1804 yy.) otasining ishlarini davom ettirgan bo'lsa, Avazning o'g'li Elto'zar inoq 1804 yilda Xiva taxtiga o'tirib, sohta xon Abdulg'ozni V ni haydab yubordi va o'zini rasmiy xon (1804-1806 yy.) deb e'lon qildi. Shu tariqa Xivada qo'ng'irotlar sulolasi hukumronligi rasmiy qaror topdi. Eltuzarxon xonlikdagi mustaqil hokimlarni birlashtirish siyosatini davom ettirdi. Ammo, uning hukmronligi uzoq davom etmadi. 1806 yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi.

Muhammad Rahimxon I markazlashtirish siyosatiga katta e'tibor berib, Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. Xiva tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon I xonlikdagi vaziyatni to'g'ri tushunib, shunga yarasha davlat siyosati ishlab chiqdi va ushbu siyosatni qat'iyatlik bilan amalga oshirdi. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan xonlikda ma'muriy – siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlar o'tkazildi.

Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etildi. Ruhoniylarga ham alohida e'tibor berilib, Shayxulislom Kengashning a'zosi va xonning eng yaqin masahatchisiga aylandi. Muhammad Rahimxon I ning musulmon ruhoniylarining halq orasidagi mavqeini hisobga olib sayidlardan bo'lgan Sayid Pirmuhammad Xo'janing qiziga uylangani ham ma'lum.

Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti jonlanganligi haqida ham ma'lumotlar talaygina. Uning davrida mahsus islohotlar o'tkazilib, soliqlar tarkibiga solindi. Bojxona tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'payib bordi.

Muhammad Rahimxon I mamlakat sarhadlarini kengaytirish hamda bo'ysunmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida qator harbiy harakatlar olib bordi. Shundan so'ng xonlik hududlarini Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish harakati boshlandi. Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlariga harbiy yurishlar Muhammadrahimxondan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olloqulixon va nabirasi Rahimqulixon davrida ham davom etdi. Olloqulixon Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlarida o'z hukmronligini mustahkamlash uchun ular ustiga besh marotaba yurish qildi. 1826 yilda Xiva qo'shinlari Shimoliy Xurosondagi Oqdarband qal'asini zabt etdilar. 1828-1829 yillarda bu hududdagi Jalqon qal'asi egallandi. Olloqulixon zamonida Buxoro va Xiva o'rtasida Marv viloyati uchun to'qnashuvlar bo'lib turdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi: T., 2000.



“AVESTO”DA MA`NAVIY TARBIYA

**Oltinoy Qodirova**

Xorazm viloyati Bog`ot tumanidagi  
14-son umumiy o`rta ta`lim maktabining  
tarix fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq xalqlarining bebaho ma`naviy merosi „Avesto“ yodgorligida ilgari surilgan g`oyalar, ayniqsa, asarda ma`naviy tarbiya talqinlari haqida to`xtalib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** e`tiqod, ta`limot, yodgorlik, jamoa, davlat, ma`naviyatezgulik, yomonlik.

Sharq xalqlarining bebaho ma`naviy merosi „Avesto“ yodgorligi yaratilganligiga uch ming yildan ortiq vaqt o`tgan bo`lishiga qaramay, asarda ilgari surilgan g`oyalar hozirgacha o`z qadr-qimmatini yo`qotgan emas.

“Avesto”ning bizgacha yetib kelgan qismlari “Yasna”, “Yasht”, “Visprad”, “Vindidod” deb nomlanadi. “Avesto”dagi eng muqaddas va e`tiborlisi, albatta, Zardushtning o`zi yaratgan “Got”lar (qo`shiq) sanaladi. Unda Zardusht ta`limotining asosiy marosimlari bayon qilinadi. “Got”lardan tashqari “Yasna”ning qolgan qismini turli diniy marosimlarda aytiladigan qo`shiq tashkil qiladi.

“Avesto”ning bugungi ma`naviy-axloqiy va tarbiyaviy talablarga hamohang bo`lgan eng muhim tamoyillaridan biri – bergan so`zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat`iy amal qilish, qarzni o`z vaqtida to`lash, aldanchilik va hiyonatdan holi bo`lish, imonlilik sifatlaridan iboratdir.

“Avestoda” odamlarni imonli-e`tiqodli bo`lishga, doimo pokiza yurishga, tanani ozoda tutishga, har qanday yomon niyat va so`zlardan tiyilishga, yomon amallardan voz kechishga, nojo`ya ishlarda yuz o`girishga davat etadigan ahloqiy qoidalar o`gilar nihoyatda ko`p.

“Avesto”ning ko`plab tadqiqotchilari bu kitobda yuksak ma`naviylik va axloq masalalari yoritilganini ta`kidlashadi.

“Avesto”ga ko`ra ikki qarama-qarshi kuch: ezgulik va yomonlik mavjud. Shu bois insonlar o`zlarining ma`naviy sifatleri bilan ezgulik tarafdori ekanliklarini korsatishlari va bu bilan ezgulik ruhlariga yovuz kuchlarga qarshi kurashda ko`maklashishlari kerak, aks holda axloqi past, nomunosib inson osongina yovuzlik to`riga ilinadi, deyiladi. Yolg`on tarafdorlariga esa abaiy qiynoq hozirlangan. Shu sababli inson hayotda biror bir maqsadni belgilar ekan, o`z zimmasiga ma`lum majburiyatlarni olib, ularning bajarilishi uchun mas`uliyat his etmog`i lozim, degan g`oya ilgari suriladi.

Demak zardushtiylikda inson ezgulik va yovuzlik o`rtasida bo`lib, ulardan birini erkin tanlashi va bu tanlov uchun javobgarlik konsepsiyasi bilan belgilanadi. Bu “GOT”larda asoslab berilgan. Inson yaxshilik va yomonlik o`rtasidagi munosabatni tanlaydi, bu tanlov ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi kurashning borishi belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Ezgulik yo`li Zardusht Yerga olib kelgan asl e`tiqod bilan belgilanadi, uning tarafdorlari birgalikdagi sa`y harakatlari ezgulik g`alabasiga olib kelishi lozim. Payg`ambar Zardusht ezgulik tantana qiladigan yangi dunyo kelishini bashorat qiladi. Ezgulik yo`lini tanlaganlar Axura Mazda asos solgan adolat shohligida bo`ladilar, deydi.

Zardusht ta`limotiga amal qilganlarga suvli yer maydonlari chorva uchun yaylov, uy va yaxshi xotin va`da qilingan. Zardusht ta`limotiga ko`ra, ko`p bolali, oilasini o`z mehnati bilan boqqan, o`z uyida abadiy alangali doimo tutib turgan kishi benuqsondir.

Shunday qilib, O`rta Osiyo, Yaqin va o`rta Sharq mamlakatlarida yashagan qadimgi xalqlar ma`naviy qarashlarining shakllanishi “biz” (yaxshilar) va “ular” (yovuzlar) tushunchalarini ijtimoiy-ruhiy qarshi qo`yishda sodir bo`lgan. Yaxshi kishilar zardushtiylikning ma`naviy-axloqiy qoidalariga muvofiq sifatlarga ega, yovuz kishilar ezgulikdan mahrum.

Xulosa qilib aytganda, “Avesto” nafaqat adabiy yodgorlik, balki ma`naviy-axloqiy g`oyalarni kuylovchi muqaddas manbaa hamdir.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O`zbekiston, 2017.
- 2.. U kim, bu nima-Qomus.Info
- 4.Avesto-Elektron kutubxona-Respublika bolalar kutubxonasi.



## THE CULTURAL AND HISTORICAL SIGHTS OF TERMEZ: KOKILDOR-OTA AND THE MEMORIAL COMPLEX OF SULTAN SAODAT

**Rakhmatullaeva Z.Z.**

Phd Student, Department of History and Theory of Architecture, Faculty of Architecture, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering, Tashkent, UZBEKISTAN

**Abstract:** Termez is one of the oldest cities in Central Asia, traces of which throughout history can be traced in various places around the modern city, reflecting the various cultural layers displayed in historical sights. The article explores the most important sights of Termez: Kokildor-Ota and The memorial complex of sultan Saodat.

**Keywords:** historical sights, Termez, Uzbekistan, historical value, cultural heritage, Kokildor-Ota, The memorial complex of sultan Saodat.

The Kokildor-Ota is highlighted by academics for its architecture and peculiar layout as a hanaqoh mausoleum of the XVI c. worthy of interest. It's considered that the name of the saint buried testimonies to his involvement in the ceremony of cutting the tuft of hair of certain believers who swore a vow to the tuft of hair until the time when some definite events took place in their lives (Molera, et al., 2021).

This was portal-domed multi-chambered architecture frontal composition with a brick wall. The concept of erecting a three-stage frontal, open facade, which was adopted in the complex of Sultan- Saodat, was duplicated here also. Its layout was symmetrical by composition: There was put a deep terrace with a major entrance and an enormous domed hall in the middle axis. On their sides, virtually parallel, were positioned two rooms across the hallway in a mirror composition. Thus, the rectangular entry led to a central hall and lateral entrances to the linked rooms and hallways that were lateral to them. The decorative holes of ganch moulding created on the intricate grid of multi-angles mimic sails and are outstanding (Staviskii, Mkrtychev, 2021).

The Timurid period was more evident in the building's massive doorway than in the architecture of Mawarannahr in the XVI century. Kokildor-tombstone Ota's dominated the inside hall. During the reign of the Timurids, researchers believe it may have been redecorated in the same way as the colossal monuments in the complex of Hakim at-Termizi, and Sultan Saodat were remodelled. The building of Kokildor-Ota is one of the few hanaqohs in Central Asia with a frontal composition, and it is also one of Termez's most important monuments. Surkhandarya, and in particular Termez, had a unique position in Central Asian medieval architecture, it seems (Ugli, 2021).



**Figure 1. Kokildor- Ota.**

Due to its proximity to Khorasan and its shared history, the architecture of Surkhandarya and the Termez oasis should be placed together. In both areas, strong expressive shapes were represented in single-relief decor, which was placed against the backdrop of normal or ornate wall cladding. The first structure of the tomb complex of Sultan Saodat contained three-part domed frontally open religious complexes (Berdyevich, 2021). The Sultan Saodat complex, Hanaqoh Kokildor Ota of the XVI c., and even raw brick homes in certain villages of the Termez area included two-domed rooms, which were connected by a terrace in the middle of the two. Favorite ornamental



approaches in Termez were laying the main facade out and occasionally the internal walls by flat-arched bays in the form of II shape. The mausoleums of Sultan Saodat, Zul-Kifl, and Uyk Gumbaz all have three-arched bays on their ornamental facades from the XI-XII century; the mausoleums of Khwaja Isa, Zul-Kifl, and Uyk Gumbaz's main façade have six arches, and the mosque's front has five arches from the madrasse of the XVIII-XI (Tukhtaev, 2022).

The fir tree motif, positioned in the interior of semi-spherical bosoms of the sails against the backdrop of double or simple wall cladding, was another ornamental style utilized in raw and baked brick buildings (the mausoleum of Sultan Saodat and Ataulla-Eshon).



**Figure 2. Khanaka kokildor-Ota**

Last but not least, this area was the birthplace of the base-supported three-quarter column utilized in arched bays. The impact of the cube placed on the rib was clearly seen when the prismatic base of the facade was cut at the right angle. During the 11th century, the mausoleums of Sultan Saodat's complex used a "diamond-shaped" foundation, as did the interior of the hanaqoh in the Hakim at-Termizi complex at the beginning of the 14th century. Construction at Termez was awe-inspiring. An encyclopedia of arched aperture structures in Central Asia, Kirk-Kiz was one of the most comprehensive. Later raw-brick buildings (of the XVII and earlier) continued to use the same compositional and constructional principles as the early classical works; they were often covered by the "Balkh" vault, which was common in the latter period (Olimovich, 2015).

A distinctive architectural style in the Termez oasis tells us that a unique local school was established in the Islamic period, which grew out of the rich soil of efficient execution of numerous systems from an earlier era in the region. The oldest mausoleums of Sultan Saodat's complex, the Kirk-Kiz structure, the carved ganch décor of the Palace of the Termez Shahs, and the burial vault of Hakim at-Termizi have been preserved as architectural marvels in this ancient town.

Termez attracts a huge number of visitors because of its rich history and wide range of architectural styles. As well as the works of Central Asian painters, you may also visit Buddhist temples in this location. The Sultan Saodat complex consists of about 140 minor architectural structures dating from the XI century and earlier. 4 hectares, which is substantially larger than the principal buildings of antiquity, is the overall area of the new building (Berdyevich, 2021).



**Figure 3. Sultan Saodat complex**

This complex, near the city of Termez, is becoming more popular with visitors from Uzbekistan's western provinces. Archaeological constructions are sometimes lacking in markers that would



help researchers determine the building's function. Emir Hussein, an ally of Amir Temur, is said to have been buried in one of the numerous graves (Ferrerias et al., 2014). The mausoleums in Termez are regarded to be the city's most holy spot, despite the city's many architectural wonders. The religious leader Bashir, who was well-known in those days and whose mausoleums they are, was honored by the construction of these monuments. A few years later, a lavish white marble headstone was erected above his resting place.

A destination of pilgrimage for all faiths, these mausoleums have become the genuine shrine and a prominent religious hub in modern times. Architecture in this period was unique, and it is possible to see influences from earlier cultures in the construction.

Termez in the past is a set of settlements that spread in time and space, on a vast territory surrounding the Amu Darya River, which is the knot of the entire history of the city. Such a concentration of historical places is characteristic of many cities of Central Asia.

### References

1. Azamatovich, X. L. (2021). The concept of heart in the treatises of Hakim Termizi. *Central asian journal of literature, philosophy and culture*, 2(3), 63-67.
2. Berdyevich, S. S. (2021). Creation of museums and cultural centers in kashkadarya and Surkhandarya. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(09), 110-115.
3. Mishra, R. (2019). Buddhist Milieu in Termez: Links in Architecture and Archaeology. In *Trans-Himalayan Buddhism* (pp. 37-54). Routledge.
4. Molera, J., Ferreras, V. M., Fusaro, A., Esparraguera, J. M. G., Gaudenzi, M., Pidaev, S. R., & Pradell, T. (2020). Islamic glazed wares from ancient Termez (southern Uzbekistan). Raw materials and techniques. *Journal of Archaeological Science: Reports*, 29, 102169.
5. Olimovich, D. I. (2015). Tourism potential of Uzbekistan. *Lucrările Seminarului Geografic "Dimitrie Cantemir"*, 40, 125-130.
6. Staviskii, B., & Mkrtychev, T. (1996). Qara-tepe in old Termez: on the history of the monument. *Bulletin of the Asia Institute*, 10, 219-232.
7. Usmonova, S. (2022). Tourism development in Uzbekistan: legal basis. *Builders of the future*, 2(2), 174-180.
8. Соломатов, В. И., Мамажонов, А.У., Абдуллаев, И.Н., Косимов, Л.М. (2022). Физико-механические особенности структурообразования бетонов на микроуровне. *Научно-технический журнал ФерПИ*. 26 (4), 104-111.
9. Tukhtaev, A. K. (2022). The role of tourism in the Surkhandarya oasis. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(1), 169-172.
10. Ugli, B. S. B. (2021). The unique archeological findings of buddhism kept in the state museum of history of Uzbekistan. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(9), 231-236.



## О‘ЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАРНИ МУЗЕЙЛАРГА ЖАЛБ ҚИЛИШ MASALASI

**Utemuratova Xanna,**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi.  
Nukus shahri, O‘zbekiston. khannautemuratova@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda bolalar muzeylarining shakllanish jarayonlari va bolalarni, yoshlarni muzeyga jalb qilish masalasi so‘z etiladi.

**Kalit so‘zlar.** Bolalar muzeyi, yoshlar, eksponat, tarix, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston, «Muzeylar haftaligi», muzeylar oyligi, “Besh tashabbus”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Milliy g‘oyani farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, bog‘chadan va maktabdan boshlashimiz zarur. Buning uchun tarixni, ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, turli xalqlarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha o‘rganish kerak” [1]. Shu ma’nodagi “Besh tashabbus” kabi yangi ijtimoiy harakatlar zamirida ham ta’lim-tarbiya, yuksak ma’naviyat kabi ezgu g‘oyalari ham mujassam ekan, “Besh tashabbus”ning ustuvor yo‘nalishlaridan biri yoshlarimizni muzeylarga jalb qilishdan iboratdir. Hozirgi vaqtda muzeylarni nafaqat eksponatlar fondi, balki jamiyat dunyoqarashi va zamonaviy madaniyatning laboratoriyasi sifatida ham e’tirof etilayotganligi ularning faoliyatini yanada takomillashtirish, tarbiya o‘chog‘i sifatidagi rolini oshirishni talab qiladi. Yosh avlodni vatanparvarlik, xalqimiz tarixi va buyuk ajdodlarimiz merosi bilan faxrlanish ruhida tarbiyalashga ko‘maklashish muzeylarning muhim vazifalaridandir.

2014 yil 11 iyulda «Sog‘lom bola yili» Davlat dasturining 9-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining «Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, haftaning har seshanba va juma kunlari barcha davlat muzeylariga 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalari bepul kirishi mumkin. Shuningdek, aholi, ayniqsa, o‘quvchi yoshlarning dam olishini mazmunli tashkil etish maqsadida har yili 2-8 sentyabr kunlari «Muzeylar haftaligi» va uning doirasida madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish hamda shu kunlari aholining davlat muzeylariga bepul kirishi to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi. Bu imkoniyatlar va shart-sharoitlarning barchasi kelajakda yoshlarimiz ma’naviy barkamol va yuksak intellektual salohiyatli shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Mamlakatimizda muzeylar oyligining o‘tkazilishi yosh avlodni dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz va xalqimizga sodiq komil insonlar etib tarbiyalashga ko‘maklashadi.

2015 yil 10 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida «Barkamol avlodni tarbiyalashda muzeylarning roli va ahamiyati» mavzusida konferensiyaning o‘tkazilishi ham soha ahamiyatini ko‘rsatadi.

Muzeylarda turli fanlarga oid ochiq darslar o‘tkazish ham an’anaga aylangan. Xususan, Geologiya muzeyida «Yosh geolog» to‘garagi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, unda tabiiy boyliklarga qiziqqan maktab o‘quvchilari qatnashadi. Ular muzey mutasaddi xodimlari tomonidan muntazam ravishda tabiat qo‘yniga olib chiqiladi va turli mineral toshlarni topib, bir joyga jamlaydilar. Maxsus musobaqa o‘tkaziladi hamda ishtirokchilar muzey ma’muriyati tomonidan rag‘batlantirib boriladi. Bular yoshlarni tariximizni, ona-tabiatimizni kengroq bilishiga katta turtki beradi.

Eslab ketamizki, birinchi Bolalar muzeyi 1899 yili Bruklinda ochilgan bo‘lib, unga tarix o‘qituvchisi Anna Billing Gallup tashabbus ko‘rsatgan edi. Amerikada uni “Bolalar muzeyi konsepsiyasining asoschisi” deb ataydilar. Uning fikricha, muzey bolalar faqat har xil eksponatlar ko‘radigan joy emas, ular o‘zini ko‘p qiziqarli tadbirlarda qatnashuvchi erkin shaxs sifatida xis etishi kerak. Bruklin bolalar muzeyi g‘oyalari ommalashuviga yordam bergan va o‘qituvchilar kursi uchun vizual ta’lim muammosi bo‘yicha o‘qitish materiali bo‘lib xizmat qilgan. Bruklindan keyin Vashingtonda 1901 yili Smitson instituti AQShda birinchi Bolalar xonasini ochadi. Bu kattalar muzeyida mustaqil bolalar bo‘limini ochish modeli bo‘lib qoladi. Xuddi shu tajribalar asosida O‘zbekistonda ham bolalarga bag‘ishlangan ekspozitsiyalar tashkil qilindi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida 2011 yil avgust oyida respublika muzeylari tarixida birinchi marta “Mo‘jizalar dunyosida” bolalar muzeyi ochildi. Ushbu muzey 4 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Ushbu muzeyning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat noan’anaviy dasturlar va ko‘rgazmalar orqali bolalarga yordam berish, tarix haqidagi bilimlarni rivojlantirish va boyitish, shuningdek,



o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini amalda namoyish etish. "Arxeologiya" bo'limida qadimiy yodgorlik "Kampirtepa, kichkina sopol tuproqda" misolida bolalar arxeologik qazishmalar olib borish imkoniyatiga ega. "Numizmatika" bo'limida turli xil tarixiy davrlarning pul ishlarining tarixi va ahamiyati o'rganiladi. "Kulolchilik" bo'limida milliy sopol idishlarni yaratish tarixi va ishlab chiqarish usullari bilan tanishishadi. "Kashtado'zlik" bo'limida do'ppilarni kashta qilishni o'rganish mumkin. "San'at" bo'limida nafaqat rasm yaratish haqida ko'p narsalarni bilib olish, balki rasmlar, miniatyuralar va boshqalarni yaratishga harakat qilish ham mumkin. Shuningdek, muzeyda "Qo'g'irchoq teatri" mavjud bo'lib, u yerda 110 yoshdan oshgan milliy qo'g'irchoqlarning eski to'plami bolalar e'tiboriga taqdim etiladi va bolalar o'zlari sevimli qo'g'irchoq qahramonini topib, spektakllar sahnalarini qo'yishlari mumkin. "O'zbekiston sovg'alari" bo'limida bolalar O'zbekistonda turli xil sabzavotlar, mevalar, makkajo'xori, paxta va ipak qurti yetishtirish haqida bilib olishadi. Ushbu bolalar muzeyi ilmiy madaniy va iqtisodiy hayotning turli sohalarida bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashda katta ahamiyatga ega, shuningdek, bilimga, mehnatga va o'z ona yurtimizga bo'lgan katta muhabbat va hurmatni tarbiyalaydi [2].

AQSh tajribasidan ko'rib chiqqanimizdek, bolalar xonasini tashkil qilishda bolalarning zehni va qiziqishlari hisobga olingan. Bunda eksponatlar kichik bolalar ularni yaxshilab ko'rib oladigan darajada past joylashtiriladi, aniq yozilgan tushuntirish matnlari bo'ladi. Shu bilan birga ekspozitsiyada "tirik eksponatlar" - baliqli akvarium, sayroqi qushlar va har xil hayvonlar ma'lum joy egallagan. Smitson muzeyining Bolalar xonasida kiraverishga "Bilim hayratlanish va kashfiyotdan boshlanadi" deb yozib qo'yilgan edi [3]. Masalan, Toshkentda "Next" ko'ngilochar savdo markazida 2017 yili birinchi interfaol ilmiy muzey bolalar uchun ochildi [4]. Mo'jazgina ikkita xona ajratilib, bu erda bolajonlar chaqmoq qaerdan keladi, hayvonlar, qushlar, hashoratlar qanday ko'radilar yoki oddiy richag qanday qilib tonnalab yuk ko'taradi degan savollarga javob oladi. Texnologiya rivojlangan bugungi davrda gidlarga ham yuqori talab qo'yiladi. Bu erga bolajonlar ko'z o'ngida harakatlarni ko'rsatish uchun hatto ximik-texnologlar ham ishga jalb qilingan. Barcha holatlarni gid izohlab boradi. Bu bugungi gidlar har tomonlama etuk ya'ni u ham pedagog va psixolog ham bo'lishi kerakligini ko'rsatadi [5].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bizga ma'lum ayniqsa maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni muzeyga jalb qilish ancha qiyinroq. Nimaga deganda, ular kattalarga atalgan ekskursovodning hikoyasiga tushunmasdi. Toshkentdagi "Next" ko'ngilochar savdo markazida tashkil qilingan birinchi interfaol ilmiy muzeyda esa bolalar faqat ekskursovod so'zini tinglash bilan cheklanmaydi, balkim o'zlari aytib berilayotgan narsalarni o'zlari ham ishlashlari mumkin.

2015 yil noyabr oyida Toshkentda Politehnika muzeyi tashkil etildi. Bu erda g'ildirakning kashf etilishidan tortib, zamonaviy avtomobilsozlikka, xususan, mamlakatimizda bo'lgan butun tarixiy yo'l bilan tanishish mumkin. Unda oddiy g'ildirakli arava, to'rt g'ildirakli soyabon aravalar, butun dunyodagi retro-avtomobillar to'plamini ko'rish mumkin. Muzey ekspozitsiyasi 3 bo'limdan iborat: "Jahon avtomobilsozligi tarixi", "O'zbekiston avtomobilsozligi tarixi" va "Interfaol amaliyot". Bugungi kunda kinetik haykaltaroshlik eng mashhur san'at turlaridan biri hisoblanmoqda. Ekspozitsiyaga qo'yilgan metal sharlardan yasalgan installatsiya butun Markaziy Osiyo mintaqasida yagona sanaladi. "Interfaol amaliyot" bo'limida kattalar bolalikka qaytish, bolalar esa, o'yin shaklida fizika qonunlari bilan tanishish imkoniga ega boladilar. Bu yerda velosiped haydagan holda, elektr energiya ishlab chiqarish hamda haqiqiy Teslo g'altagini ko'rish mumkin. Mexanikaga bag'ishlangan hududda kvadrat g'ildirakli velosipedni o'zlashtirish, abadiy dvigatel nusqalari bilan tanishish mumkin. Optik illyuziyalar joyi bo'lmish Eym's xonasi ham qiziqarli. Muzeyda bir haftaga mo'ljallangan qiziqarli dastur ham ishlab chiqilgan bo'lib, bunda ishtirokchilar plastik materiallardan turli narsalar yasaydilar, rasm chizadilar, o'qiydilar va matematika bilan shug'ullanadilar [6].

2021 yil 10 mart kuni Toshkent politehnika muzeyida o'zbek tilida yozilgan «Muzey qanday tuzilgan» ensiklopedik kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. Ensiklopedik kitob katta albom shaklida, undan illyustratsiyalar va maxsus topishmoqlar ham joy olgan. Kitobdagi rasmlar asosida muzeylar haqida hatto bog'cha yoshidagi bolalar ham bemalol ma'lumot olishi mumkin. Kitobda I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat badiiy san'at muzeyining kolleksiyasidan ham foydalanilgan.

Muzeylar ma'naviyat va ma'rifat maskanlari hisoblanadi. Shunday ekan, maktab, mahalla faollari bilan bog'lanib, yoshlarning muzeylarga ko'proq tashrif buyurishlarini ta'minlash soha xodimlari va mutasaddi tashkilotlar oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.



Bugun butun dunyoda bolalar tarbiyasiga, intellektual rivojlanishiga, erkin fikrlashlariga katta e'tibor qaratayotganining guvohi bo'lamiz. Bolalar kelajagimizdir. Shunday ekan qo'yidagi takliflarimiz imkoni bor deb hisoblaymiz:

1) O'zbekiston, jumladan Qoraqalpog'istonda kattalar uchun muzeylar tarkibida emas, balki alohida o'z ajoyib nomlariga ega bolalar muzeylarini tashkillashtirish; 2) Bolalarga moslangan ekskursiya matnlarini yaratish; 3) Bolalar interaktiv muzey burchaklarini hosil qilish; 4) Muзей eksponatlari haqida bolalar kitoblarini ko'paytirish; 5) Muзей kadrlari malakasini oshirishda, muзей kadrlarini tayyorlashda bolalar muzeyining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish davr talabidir.

**Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – Б. 149.
2. Болалар музейи. <https://www.history-museum.uz/about>
3. Мухамедова М.С. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда миллий ва халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX-XXI асрлар). – Тошкент, 2017. – Б. 57.
4. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л.Г. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Ташкент: «Fan va texnologiya», 2017. – С. 194.
5. Karamanova G., Sulaymanov S., Utemuratova X. Mustaqillik davrida O'zbekistonda muzeylar va muzey ishi. – Nukus: QQDU, 2021. – B. 17.
6. Ахмедов Ж. Тошкент политехника музейи // Мозийдан садо. – Тошкент, 2020. - № 1 (85). – Б. 46-48



**FORS KO'RFASI MINTAQASI O'ZIGA XOS AHAMIYATGA EGA GEO-IQTISODIY, GEOSTRATEGIK VA GEOSIYOSIY VAZIYATLAR.**

**Xayrullayeva Zarina Ne'matullo qizi**

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti,

Tarix yo'nalishi magistranti

Телефон: +998908071007

khayrullaeva.zarina.0608@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola Fors ko'rfazi mamlakatlarida neft siyosati, geopolitik siyosati va bu siyosatga chet mamlakatlari, asosan AQShning ta'siri haqidadir. Neft zahirasi va eksportining raqamlardagi siyosati hamda tadqiqotchilarning neft siyosatiga nisbatan tahlili keltirilgan. Strategik jihatdan xavfsizlik uchun olib borilgan harakatlar tafsilotlari berilgan. AQShning “egizak ustun” va Iroqqa nisbatan tashqi siyosati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**ANNOTATION:** This article is about oil policy, geopolitical policy in the Persian Gulf countries and the influence of foreign countries, mainly the United States, on this policy. The figures in the policy of oil reserves and exports, as well as the researchers' analysis of oil policy. Details of actions taken for strategic security are given. There are reports of U.S. "twin pillars" and foreign policy toward Iraq.

**KALIT SO'ZLAR:** Fors ko'rfazi davlatlari, Neft zaxiralari, Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Richard Sokolskiy, AQSh siyosati, "Karter doktrinasini, "egizak ustun" siyosati.

**KEY WORDS:** Persian Gulf States, Oil Resources, International Energy Agency data, Organization for Economic Co-operation and Development (OECD), Richard Sokolsky, U.S. Policy, Carter Doctrine, “Twin Column” Policy.

Fors ko'rfazi mintaqasi butun tarix davomida mintaqaviy va mintaqadan tashqari kuchlarning diqqat markazida bo'lgan. Iqtisodiy jihatdan tasdiqlangan neft zaxiralarining deyarli uchdan ikki qismi (65 foiz) va dunyoning uchdan biridan ko'prog'i tabiiy gaz zaxiralari (40 foiz) Fors ko'rfazida joylashgan.

Ko'rfaz mintaqasi. Bundan tashqari, jahon neft savdosining 20 foizi ushbu hudud orqali amalga oshiriladi. Oxirgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, deyarli 23 million barrel neft (jahon neftining qariyb 27 foizi) Fors ko'rfazi davlatlari tomonidan har kuni ishlab chiqariladi. Shuningdek, Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra taxmin, 2025 yilda Fors ko'rfazi davlatlari har kuni 36,4 million barrel xom neft eksport qiladi. boshqa tomondan, qazilma energiya yana ikkita afzalligi bilan Fors ko'rfazi mintaqasi boshqalardan ajratib turadi:

1) pastroq yilda xom neft va tabiiy organlarni ekspluatatsiya qilish xarajatlari boshqa hududlar bilan taqqoslash;

2) xom neft zaxiralari bilan samarali va rivojlangan transport yo'nalishlariga yaqin joylashgan turli bozorlarga chiqish.

Geosiyosiy jihatdan Fors Ko'rfaz qulay hududda joylashgan hududda joylashganligi sababli Yevropa, Afrika va Osiyo uchrashtirishga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, qit'alardagi voqealar bevosita Arab mamlakatlariga ta'sir qiladi. Geostrategik nuqtai nazardan Fors Ko'rfaz boshqa mintaqalarga kirish uchun harbiy yo'l bo'lgan dunyo kuchlari mintaqani asosiy ahamiyatga ega qiladigan omillardan biridir. Mintaqaning asosiy ko'rsatkichlari va geosiyosiy xususiyati bu uning dunyoga qazib olinadigan yoqilg'i eksportining eng yuqori hajmi. Fors ko'rfazi sohilidagi davlatlarining neft zaxiralari 65 foizini Iroq, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon va Bahrayn tashkil etadi va umumiy neft zaxiralarining 28 foizini shu davlatlar ta'minlaydi. Saudiya Arabistoni dunyodagi neft zahiralarining qariyb 25 foiziga ega, undan keyin Eron, Iroq, Quvayt va BAA davlatlaridir. Shuning uchun Saudiyaning Fors ko'rfazining to'rtta qirg'oq davlati Arabiston, Eron, Iroq va Quvayt birgalikda tasdiqlangan global neft zaxiralarining 55 foizdan ko'proq ulushga ega. Shunday qilib, Fors ko'rfazi eng ko'p dunyoning tuganmas energiya qutbi hisoblanad va Yaman) xom neft ishlab chiqarish bo'yicha ham yuqori o'rinda turadi. Fors ko'rfazi qirg'oq davlatlari (Eron, Birlashgan Arab Amirliklar, Bahrayn, Iroq, Saudiya Arabistoni, Ummon, Quvayt, Qatar va Yaman) ham neft qazib olish bo'yicha yuqori o'rinlarga ega.

2002 yilda ular dunyoning neft va neft mahsulotlarining 27 foizini ishlab chiqargan. Mintaqaning



tabiiy gaz zaxiralari taxminan Dunyoning umumiy gaz zahiralarning 45 foizini tashkil etadi. xalqaro Energiya agentlik ma'lumotiga ko'ra (2006), taxminan 80% Yaqin Sharqning tasdiqlangan tabiiy gaz zaxiralari Fors ko'rfazi hududida joylashgan. Bu hudud dunyoning umumiy xom ashyosining 32 foizini ishlab chiqaradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Qo'shma Shtatlardan ko'ra ko'proq Fors Ko'rfaziga bog'liqdir<sup>1</sup>.

Milliy Mudofaa Universitetining Vashingtondagi Strategik tadqiqotlar Milliy instituti Zahiradagi tadqiqotchi Richard Sokolskiy, Fors ko'rfazi 2010 o'n yillikdagi energiya ta'minoti G'arb uchun asosiy neft manbasi bo'lib qoladi va qismi AQSh uchun 14% ni tashkil etib turgan vaziyatda, Fors ko'rfazi ining umumiy neft iste'mol eksporti 35 % ga oshganligini tahlil qilgan edi<sup>2</sup>. Xalqaro Energiya Outlook Report 2006 yil ma'lumotlariga ko'ra, AQSH energiya importi hajmi 2004 yilda 29% dan 2030 yildagi 32-33% energiya talabi qoplash uchun oshirib boriladi. Shuningdek, Energiya axbarot agentligi 2008 yilgi xabariga ko'ra bugungi yo'l energiyaga bo'lgan ta'labni 2050-yilgacha 70 % oshirishiga olib keladi<sup>3</sup>. Genri Kissinger, 1973 yilgi neftdan keyin narx zarbasi, import qilinadigan energiya ta'sirida AQSh xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri bo'lganligini ta'kidladi. So'nggi o'ttiz yillikda biz import qilinadigan energiyaga shunchalik qaram bo'lib qoldikki, bugungi kunda iqtisodiyotimiz va farovonligimiz minglab kilometr uzoqlikdagi davlatlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning garovi bo'lib qoldi. Energiya inqirozi bu davlatning dunyodagi barcha maqsadlarini xavf ostiga qo'ydi. Bu bizning iqtisodimizni garovga qo'ydi va tashqi siyosatimizni misli ko'rilmagan bosimlarga zaif qilib qo'ydi<sup>4</sup>.

#### **AQShning Fors ko'rfazi uchun o'tmishdagi xavfsizlik tizimini yaratishga urinishlari.**

Fors ko'rfazining xavfsizligi, ayniqsa, bu mintaqada neft resurslari topilganidan beri mintaqaga a'zo davlatlar, xalqaro hamjamiyat va sanoat dunyosi o'rtasida doimo muhim masala bo'lib kelgan. 1979 yilda Erondagi Islom inqilobidan oldin Fors ko'rfazidagi arab davlatlari Fors ko'rfazi mintaqasi xavfsizligida ahamiyatsiz rolga ega edi. 1971-yilgacha Britaniya o'zini ikkinchi jahon urushigacha mintaqa xavfsizligi, katta neft zaxiralari va erkin savdo oqimini ta'minlash uchun mas'ul deb hisoblardi. 1971 yilda Buyuk Britaniyaning Suvaysh sharqidan (shuningdek, Fors ko'rfazi hududidan) ajralib chiqishidan so'ng, AQSh mintaqadagi hokimiyat bo'shlig'ini to'ldirish uchun yangi xavfsizlik tizimini yaratishga harakat qildi. AQSh siyosati G'arb (haqiqatan ham global) farovonlik xavfsizlik bilan bog'liq edi.

**Fors ko'rfazidan neft ta'minoti.** Vetnamda olingan og'ir saboqlarni hisobga olib, Vashington Fors ko'rfaziga o'z qo'shinlarini jo'natishni istamadi. Buning o'rniga, Nikson ma'muriyati "egizak ustun" siyosatini ishlab chiqdi: neft resurslarini har qanday dushman tahdididan himoya qilish uchun ikkita mintaqaviy kuchga (Eron va Saudiya Arabistoni) tayanish<sup>5</sup>. Ikkalasidan Eron Saudiya Arabistonidan ko'ra harbiy jihatdan g'arb manfaatlarini ta'minlashga qodir va siyosiy jihatdan barqarorroq deb hisoblangan. Shunday qilib, Eron shohi AQShning eng ilg'or qurollaridan deyarli cheksiz foydalanish huquqiga ega bo'ldi va Nikson ma'muriyatining "egizak ustun siyosati"ga ko'ra, asta-sekin "Fors ko'rfazining politsiyachisi" sifatida qabul qilindi. Ikki muhim voqea 1979 yil oxirida "egizak ustun siyosati"ning barbod bo'lishiga olib keldi. Birinchidan, Erondagi Pahlaviy rejimi ag'darib, o'rniga islomiy tuzum o'rnatildi.

Respublika va Oyatulloh Humayniy rahbariyati. Ikkinchidan, sovet qo'shinlari Afg'onistonga bostirib kirdi va Fors ko'rfazidan neft ta'minotiga bevosita tahdid soladigan holatda edi. Ushbu ikki voqea AQShning mintaqadagi siyosatida "Karter doktrinasini" da e'lon qilingan keskin o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu yangi siyosatga ko'ra: "tashqi kuchlarning Fors ko'rfazi mintaqasi ustidan nazoratni qo'lga kiritishga bo'lgan har qanday urinishi AQShning hayotiy manfaatlariga tajovuz sifatida baholanadi va shuning uchun har qanday vositalar, shu jumladan harbiy kuch

1 Asif, M., & Khan, M. T. (2009), Possible Us-Iran Military Conflict and Its Implications upon Global Sustainable Development, Journal of Sustainable Development.

2 J Maloney, S. (2010), Energy Security in the Persian Gulf; Opportunities and Challenges. In C. Pascual & J. Elkind (Eds.), Energy Security; Economics, Politics, Strategies, and Implications (pp. 288). Washington, D.C.: Brookings Institution Press.

3 D. O. E. (2006), DOE EIA, State Energy Profiles, US Department of Energy. Energy Information Administration (2006). Chubin, S. The Persian Gulf: Security, Politics, and Order In the Persian Gulf.

4 Hurewitz, J. C. (1972). The Persian Gulf: British Withdrawal and Western Security. The Annals of the American Academy of Political and Social Science 40(1), 106-115.

5 Saeed Taeb, & Khalili, H. (2008). Security Building Priorities in Persian Gulf: An Approach to National Security Policy of Iran. The Iranian Journal of International Affairs 10(3), 27-71.



bilan qaytariladi". Shunday qilib, Vashington mintaqaviy kuchlarga tayanishdan neft resurslarini himoya qilish uchun o'z harbiy kuchini ishlatishga tayyor bo'lishga o'tdi<sup>1</sup>. Ushbu yangi strategiyaga muvofiq, Karter tezkor joylashtirish bo'yicha qo'shma ishchi guruhini yaratishga ruxsat berdi. (Keyinchalik AQSH Markaziy Qo'mondonligi (USCENTCOM) nomini o'zgartirdi) 1993-1997 yillar davomida Klinton ma'muriyati "ikkilamchi qamoqqa olish" siyosatini ifodaladi, bu siyosatga ko'ra; AQShning urinishlari Eron va Iroq o'rtasidagi kuch muvozanatini saqlab qolish uchun u yoki bu tomonga burilish o'rniga kuchsizligini saqlab qolish edi. Boshqa tomondan, Klintonning ikkitomonlama siyosati davrida Saudiya Arabistoni Podshohligi va Quvayt shayxligi birinchi navbatda Iroqdan kelib chiqadigan odatiy tahdidan xavotirda edi va Eronni Iroq kuchiga qarshi kurashuvchi vosita sifatida ko'rdi. Ikki tomonlama cheklash siyosati Eron va Iroq faoliyatini cheklashda ham unchalik muvaffaqiyat qozonmadi<sup>2</sup>.

### **AQShning Iroqqa hujumidan keyin mintaqaning o'ziga xosligi**

Buyuk Britaniya 1971 yilda Suwaysh kanalining sharqidan chiqib ketishni rejalashtirayotganini e'lon qilganidan beri Fors ko'rfazining samarali xavfsizlik tizimini topish uchun bir necha bor sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Fors ko'rfazi strategik muhitining beshta xususiyati mavjud bo'lib, ular AQShning Fors ko'rfazi mintaqasidagi kelajakdagi strategiyasiga eng katta ta'sir ko'rsatadi: mintaqaviy neft eksportiga global qaramlik; zo'ravon sub-davlat kuchlari tomonidan tahdidning kuchayishi; qurollarining tarqalishi, ommaviy qirg'in; noaniq siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar tendentsiyalari; va Iroqning kelajakdagi barqarorligi<sup>3</sup>.

Faktlar mintaqaviy va tashqi tomonlarning funktsional xavfsizlik tizimini ishlab chiqishga urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchraganligini ko'rsatadi; chunki bugungi tizim Amerika Qo'shma Shtatlarining xavfli urushlarni ko'paytirishga va mintaqada ommaviy qirg'in quroliga ega bo'lgan mahalliy davlatlarga qaramasdan harbiy mavjudligini saqlab qolishga tayyorligiga bog'liq. Fors ko'rfazidagi neft ta'minoti jahon iqtisodiyoti uchun har doimgidek muhim bo'lganligi sababli, ishonchli xavfsizlikka intilish hech qachon muhim bo'lmagan. Shunga qaramay, hatto Fors ko'rfazi mintaqasidagi mojarolar va urushlar paytida ham mintaqada, Yevropada yoki Qo'shma Shtatlarda juda kam jamoatchilik muhokamasi bo'lib o'tdi va urushdan keyingi tizimning shakli haqida juda kam haqiqiy tahlil qilindi.

**Mintaqani bezovta qilgan beqarorlik va mojarolar.** Garchi urush muxoliflari bu mintaqani beqarorlashtirayotganini da'vo qilishsa-da, inqirozdan inqirozga qadar cho'zilgan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mavjud tuzilmani qanday yaxshilash yoki almashtirish bo'yicha amaliy g'oyalari yo'q. Olimlar mintaqani barqarorlashtirishga yordam beradigan g'oyalarni taklif qilishlari uchun vaqt yetdi. Yaqin Sharq va ayniqsa Fors ko'rfazi davlatlari so'nggi qirq yil ichida harbiy to'qnashuvlardan, jumladan Iroqda davom etayotgan mojarolar, 1991 yil Quvayt urushi va 1980-88 yillardagi Eron-Iroq urushidan katta zarar ko'rdi. Fors ko'rfazining barcha davlatlar ishtirokisiz mavjud xavfsizlik tizimi faqat qisqa va o'rta muddatli istiqbolda mintaqani barqarorlashtirish imkoniyatini beradi va uzoq vaqt davomida mos kelmaydi. Hozircha Fors ko'rfazi bo'ylab keng ko'lamlil xavfsizlik forumini tashkil etish mintaqaviy xavfsizlikni oshiradi va barcha qonuniy xavfsizlik muammolarini e'tirof etish va forumlar takomillashib borishi bilan tobora muhim rol o'ynashi mumkin. 2003-yilda Saddam hokimiyatdan chetlatilganidan keyin yangi va yaxshiroq xavfsizlik tizimini barpo etish imkonini beruvchi yanada nozik voqealar yuz berdi. Ulardan biri Saudiya Arabistoni elitasi va Fors ko'rfazi hamkorlik kengashining (GCC) kichik davlatlari tomonidan ichki xavfsizlik tizimiga islohotlarga ehtiyojning ortib borayotganidir<sup>4</sup>. Har ikki tomonning ritorika bilan yashiringan boshqa bir voqea - Amerika Fors ko'rfazi mintaqasida barcha davlatlar ishtirokisiz har qanday kelishuv barqaror bo'lishi mumkin emas, deb hisoblashi ehtimoli ortib bormoqda va Eron AQShning Fors ko'rfazida o'z manfaatlariga ega ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

1 Bagat, G. (1999). Security in the Gulf: The View from Oman. Security Dialogue, 30(4), 445-458.

2 ). Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge University Press. [18] Huntington, S. (1993). Huntington, "The Clash of Civilizations?" Foreign Affairs, 72(3), 22-49.

3 Hurewitz, J. C. (1972). The Persian Gulf: British Withdrawal and Western Security. The Annals of the American Academy of Political and Social Science 40(1), 106-115

4 Kupchan, C. (2007). Toward a New Persian Gulf Security System: Lessons of the Asian Model. The Iranian Journal Of International Affairs, 11(2), 65-79.

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2022

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000